



YANVAR 2015

MAMLAKATDAGI VAZIYAT TAHLILI

## O'zbekiston

2014-yilda O'zbekistonda inson huquqlari bilan bog'liq vaziyat og'irligicha qoldi. Prezidentligining 25-yilini boshlar ekan, avtoritar rahbar Islom Karimov xavfsizlik organlarini keng miqyosda safarbar etib, har qanday qarshilikni kuch bilan bartaraf etish siyosatini davom ettirdi.

O'zbekistonda erkinlik har tomonlama cheklangan. Erkin fikr repressiya ostida. Siyosiy muxolifat, mustaqil matbuot, erkin kasaba uyushmalari, mustaqil fuqaro jamiyati yoki erkin e'tiqodga yo'l berilmaydi. O'z haqqini talab qilganlar, davlat manfaatlariga "to'g'ri kelmaydigan" qadam qo'yganlar hibsga olinishi, sudsiz jazolanishi va qiynoqqa solinishi mumkin. Katta yoshdagilar va bolalarni majburiy mehnatga jalb etishga barham berilmagan.

Katta shov-shuv uyg'otgan voqea – prezident qizi Gulnora Karimovaning o'z singlisi va onasi bilan mojarosi, shuningdek, Milliy xavfsizlik xizmatiga (MXX) qarshi "Twitter" tarmog'ida olib borgan jangi siyosiy elita ichidagi o'ziga xos va misli ko'rilmagan kurashni aks ettirdi. Bu jarayonda Karimova MXX va siyosiy doiralarini korrupsiya va qiynoqlarda aybladi va shu paytgacha og'iz ochilmagan mavzular muhokamaga chiqdi. Nozik masalalarga e'tibor qaratildi. Lekin bu mojaro hukumatni va jamiyatni erkinlik va oshkoralik tomon yetaklamadi.

### Tanqid qilsangiz, hib va bosim bilan yuzlashasiz

O'zbekiston hukumati minglab fuqarolarni siyosiy fikri uchun qamoqqa olishni odat qilgan. Bu repressiv boshqaruv tizimi bo'lib, inson huquqlari faollari hamda muxolifatchilar, jurnalistlar, taqvodorlar, san'atkorlar va tanqidiy fikr bildirgan har qanday fuqaro ta'qibga uchrashi va qamoqqa olinishi mumkin.

Erkin fikr bildirganidan boshqa aybi yo'q quyidagi 14 shaxs panjara ortiga tashlangani bunga yaqqol misol: A'zam Farmonov, Mehriniso Hamdamova, Zulhumor Hamdamova,

Isroiljon Xoldorov, G'aybullo Jalilov, Nuriddin Jumaniyozov, Matluba Komilova, G'anixon Mamatxonov, Chuyan Mamatqulov, Zafarjon Rahimov, Yo'ldosh Rasulov, Bobomurod Razzoqov, Faxriddin Tillayev va A'zam Turg'unov. Besh jurnalist: Solijon Abdurahmonov, Muhammad Bekjonov, G'ayrat Mixliboyev, Yusuf Ruzimurodov va Dilmurod Saidov. To'rt muxolifatchi: Murod Jo'rayev, Samandar Qo'qonov, Qudratbek Rasulov va Rustam Usmonov. Uch mustaqil dindor: Ruhiddin Faxriddinov, Xayrullo Hamidov va Akrom Yo'ldoshev. 2005-yilning 13 mayidagi qirg'inga guvoh bo'lgan, yuzlab tinch namoyishchilar o'ldirilgan kuni jinoyat qilganlikda ayblangan yetti shaxs: Dilorom Abduqodirova, Botirbek Eshko'ziyev, Bahrom Ibragimov, Davron Qobilov, Erkin Musayev, Davron Tojiyev va Ravshanbek Vafojev. Bu insonlarning ko'pi kasal, qiynoqlarni boshdan kechirgan va ularning jazo muddatlari asossiz, ataylab uzaytirilgan.

2014-yilning yanvar oyida mustaqil fotograf Umida Ahmedova, uning o'g'li va yana besh kishi Ukrainadagi inqilobni va erkinlik harakatini yoqlab bu davlatning Toshkentdagi elchixonasi oldida namoyish qilgani uchun militsiya tomonidan ushlab turildi va jarimaga tortildi. Umida Ahmedovava va uning o'g'li bir kun o'tib qo'yib yuborildi. Qolganlar esa 15 sutkaga ozodlikdan mahrum etildi.

Mart oyida Toshkent sudida ikki faol - Faxriddin Tillayev va Nuriddin Jumaniyozov sakkiz yillik qamoq jazosiga loyiq topildi. Mehnatkashlar huquqlarini himoya qilib tanilgan bu fuqarolar inson savdosida ayblandi. Ular soxta tergov, soxta ayblovlar qurboni bo'ldi.

Xuddi shu oy qamoqdagi faol G'anixon Mamatxonovning jazo muddati mavhum sabablarga ko'ra mavhum yilgacha uzaytirildi. Mamatxonov aslida besh yilga qamalgan edi. Bu huquq himoyachisi ham shu tariqa soxta ayblovlar qurboni.

Iyun oyida O'zbekiston yana bir faol - Abdurasul Xudoynazarovdan ayrildi. Qattiq kasalligi tufayli qamoqdan chiqarilgan bu inson oradan 26 kun o'tib jon berdi. Uydirma ayblovlar bilan to'qqiz yilga ozodlikdan mahrum etilgan Xudoynazarov sakkiz yildan oshiq davr qamoqda o'tirdi. Saraton kasalidan azob chekkan mahbusga zarur muolaja olish uchun ruxsat berilmagan. Ahvoli nihoyatda og'irlashgani sabab hayotining oxirgi damlarini qamoqdan tashqarida o'tkazish uchun imkon berildi xolos. Vaholanki, Xudoynazarov 2006-yilda hibsga olinganidan boshlab, tibbiy yordam so'rab kelgan.

Iyun oyida, shuningdek, Toshkentda mustaqil jurnalist Said Abdurahimov sudlandi. Sid Yanishev taxallusi ostida “FerganaNews” sayti muxbiri sifatida nom qozongan bu fuqaro jamoat xavfsizligiga raxna solganlik va boshqa ayblovlar bilan yuzlashdi. Sud Abdurahimovga minimal maoshning 100 barobarini to’lab, video kamerasini davlat ixtiyoriga topshirishni buyurdi. Jurnalist, hukmga asosan, qariyb 3200 dollar jarima to’ladi va ish qurollaridan ayrildi.

Sentabr oyida hukumat blogerlar ishi ustidan nazoratni kuchaytira boshladi. Yangi cheklovlar tanishtirildi, jumladan, “yolg’on postlar va ularni qayta post qilish” jinoyat sifatida ko’rila boshladi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Matbuot erkinligi masalalari bo’yicha vakili Dunya Miyatovich nazarida bu siyosat shundoq ham cheklangan muhitni yanada og’irlashtiradi, blogerlar orasida qo’rqinch hissini kuchaytiradi va shu tariqa O’zbekistonda erkin fikr maydoni yanada torayadi.

Sentabrda muxolifat yetakchilaridan biri Bahodir Choriyevning rafiqasi Feruza Xurramova va uning o’g’li O’zbekistonga kiritilmadi, vaholanki har ikkisi respublika fuqarolari edi. Amerikada yashaydigan oila vakillari Toshkent xalqaro aeroportida bir necha soat ushlab turildi. So’ngra ularga O’zbekiston fuqaroligidan chiqarilgani aytilib, har ikkisi Turkiyaga deportatsiya qilindi. Sal o’tmay chet elda yashayotgan Choriyevlarning hammasi prezident Islom Karimov buyrug’i bilan fuqarolikdan chiqarilgani bayon qilindi.

## **Jinoiy adliya tizimi va qiynoqlar**

2013-yilning noyabrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qiynoqlarga qarshi qo’mitasi shunday xulosa qilgan: O’zbekistonda qiynoqlar muntazam ravishda, sistematik tarzda qo’llanadi. Militsiyaxonalar, qamoqxona va MXX hibsonalarida bu qabih ishlarga ruxsat beriladi. Mahbuslarni qattiq tayoqlar va butilkalar bilan urish, qo’li va oyoqlaridan osib qo’yib qiynash, jinsiy bosim va tajovuzlar keng tarqalgan.

O’zbekistonda “habeas corpus” tizimi (hibsga olingan shaxs 48 soat ichida sud oldiga olib borilishi kerak, O’zbekistonda 72 soat deb belgilangan) 2008-yildan beri mavjud lekin suddan oldin mahbuslarni qiynoqqa solish va yetarli isbot-dalilsiz sudlash va jazoga tortish hollari kamaymagan. Sudlanuvchilarga advokat yollashga ko’p hollarda ruxsat

berilmaydi va davlat nazorat qiladigan advokatlar kengashi a'zolari siyosiy jihatdan nozik ishlarga aralashishdan qo'rqadi. Natijada mahbuslarning huquqlari himoya qilinmaydi.

Qamoqdagi faollar Nuriddin Jumaniyozov va Faxriddin Tillayevning advokati "Human Rights Watch" ga shuni bildiradiki, 2014-yilning yanvarida organlar Tillayevning qo'l va oyoq tirnoqlariga nina tiqib azoblagan va uni soxta iqronoma berishga majburlagan.

Iyul oyida esa boshqa bir mahbus, huquq faoli Chuyan Mamatqulov do'pposlangani ayon bo'ldi. Uning rafiqasining aytishicha, 20-aprel kuni qamoqxonaning Sherali ismli xodimi Mamatqulovni rezinka tayoq bilan savalagan. Sabab – mahbus tish doktori xizmatidan foydalanishni so'ragan. Qattiq kaltaklangan Mamatqulov 24 soat izolyatorda ham o'tirgan.

### **Andijon qirg'ini**

Qariyb 10 yildirki, O'zbekiston hukumati 2005-yilda Andijonda nima bo'lganini mustaqil tekshirishga ruxsat bermay keladi. Bu fojia guvohlari deya gumon qilinganlar yoki hukumatning ishini ochiq tanqid ostiga olganlar qamaladi.

Mana shunday ayblovlar ostida 2012-yilda 10 yilga ozodlikdan mahrum etilgan Dilorom Abduqodirovaning jazo muddati yana sakkiz yilga uzaytirildi. 2005-yilda Qirg'izistonga qochgan, keyin Avstraliyadan boshpana olgan ayol 2010-yilda vatanga qaytishi bilan hisbga olingan. Vaholanki, unga qaytsa jazolanmasligi va'da qilingan.

### **Majburiy sterilizatsiya**

2014-yilda "Human Rights Watch" O'zbekistonda ginekologlar bilan suhbatlashib shuni aniqladiki, respublika Sog'liqni saqlash vazirligi ayrim doktorlarga har oy muayyan sondagi ayollarni majburan bepusht qilishni buyuradi. Ikki yoki undan ko'p farzandli ba'zi ayollar o'zi xohlmagan tarzda sterilizatsiya qilingan. Bu holat asosan qishloq joylarda kuzatilgan. Ginekologlar bu ish jarrohlik amaliyoti orqali qilinganini aytib, aksariyat hollarda tibbiy talablarga javob berilmaganini tan olgan.

### **E'tiqod erkinligi**

O'zbekistonda hukumat chizgan chiziqdan chiqqan dindor ta'qibga uchraydi va qamoqqa olinadi. Iyul oyida Mustaqil inson huquqlari himoyachilari tashabbus guruhi mamlakatda 12 mingdan oshiq odam aynan shu bois qamoqda o'tirganini e'lon qildi. Ular "ekstremizm" va "anti-konstitutsion" harakatlarda ayblangan. O'tgan bir yil ichida yuzlab fuqarolar shu ayblovlar asosida qamoqqa tashlangan. Organlar nasroniy taqvodorlarni ham nishonga oladi, jumladan diniy darslar berganlar jinoyatda ayblanib, jarimaga tortiladi.

Oktabr oyida "Forum 18" tashkiloti Toshkent viloyatidagi qamoqxonada Nilufar Rahimjonova ismli mahbus vafot etgani haqida xabar berdi. 37 yoshli Rahimjonova 10 yillik qamoq jazosini o'tayotgan edi. Ayol terrorizm va boshqa jinoyatlarda aybdor deb topilgan. Otasi sobiq imom Ma'rufjon Rahimjonov va eri Sayidyunus Istarafshaniy Eronda yashaydi va O'zbekiston hukumatini qoralab keladi. Rahimjonova 2011-yilda hibsga olingan. Oilasini qoralab tele-intervyu berishga zo'rlangan, yetarli isbot-dalilsiz sudlangan va hibsdan xo'rlangan. Mahbus biror kasallikdan shikoyat qilmagan, surunkali xastaliklardan azob chekkani haqida ham ma'lumot yo'q. 2014-yilning 13-sentabrida nima sabab jon bergani noma'lum. Hukumat jasadni marhumaning ukasiga topshirib, hech qanday tekshiruvsiz darhol ko'mishni buyurgan. Rahimjonova taqdiri bilan tanish huquq himoyachilari taxminicha, mahbus qiynoqlardan o'lgan bo'lishi mumkin.

## **Jinsiy erkinlik va tenglik masalalari**

O'zbekistonda bir jins vakillarining seksual aloqa qilishi jinoyat hisoblanib, uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi. Faollarning aniqlashicha, ichki ishlar xodimlari gomoseksual insonlarni qo'rqitish orqali pul undirishga o'rgangan. Gomofobiya va kamsitish respublikada tabiiy hol.

## **Majburiy mehnat**

Bolalar va kattalar davlat tomonidan paxtazorlarda majburan ishlatiladi. Har kuz ikki oy ikki millionga yaqin fuqaro - katta yoshdagilar va asosan 15-17 yosh orasidagi o'quvchilar, ayrim hollarda undan ham yosh bo'lganlar - paxta teradi.

Xalqaro bosim va talablar bois hukumat 2014-yilda 2013-yilga qaraganda kamroq bolani ishlatdi, lekin buning evaziga ko'proq kattalar va yuqori sinf o'quvchilari majburiy mehnatga jalb etildi. Paxta kampaniyasi paytida ko'plab sohalar to'xtab qoladi, chunki

xodimlar dalada. Davlat sektorida ishlaydiganlar, jumladan shifokorlar, tibbiy xodimlar va o'qituvchilar terimcha chiqadi.

Fevral oyida BMT qoshidagi Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) 2013-yilda olib borilgan tekshiruv natijalarini e'lon qilib, O'zbekistonda majburiy mehnat "sistematik" bo'lmasa-da, uni bartaraf etib, bolalar mehnati va boshqa jiddiy muammolarni hal etish kerak deya chaqirdi. O'zbekistondagi huquq faollari nazarida tashkilot tekshiruvi sayoz kechgan va majburiy mehnat hollari izchil tekshirilmagan, shuningdek, jarayonga mahalliy faollar jalb etilmagan. Butun jarayon hukumat bilan olib borilgan. Shu bois ham XMT xulosasi xolis tahlil deya baholanmadi.

### **Xalqaro hamjamiyat**

O'zbekiston BMT inson huquqlari organlari bilan eng kam hamkorlik qiladigan davlatlardan biri. 12 yildirki, BMTning huquq masalalari bo'yicha biror maxsus vakili mamlakatga kiritilmaydi. 11 ekspertdan hech biriga ruxsat berilmagan. BMT bergan tavsiyalarning deyarli barchasi rad etiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari O'zbekiston hukumatining huquqbuzarligini ko'rib turib biror jiddiy chora ko'rishni lozim topmaydi, chunki Toshkent Afg'oniston bo'yicha muhim hamkor. Notinch yurtga olib boriladigan va u yerdan olib chiqiladigan yuk Shimoliy Ta'minot Tizimi deb ataluvchi yo'nalish orqali O'zbekistondan ham o'tadi.

O'zbekistonda majburiy mehnat jiddiy muammo ekanini tan olib, Davlat departamenti respublikani o'z reytingida eng quyi pog'onaga tushirdi. Diniy erkinliklar poymol etilishi sabab mamlakat olti yildirki, "xavotirga molik davlatlar" safida. Bunday maqomlar O'zbekiston hukumati sanksiyalar bilan yuzlashishi kerak deganidir. Biroq har ikki holda ham Obama ma'muriyati jazo chorasi ko'rmadi. Bu siyosat O'zbekiston bilan hamkorlik AQSh davlat xavfsizligi yo'lida xizmat qiladi deya izohlandi.

Yevropa Ittifoqi O'zbekistonni inson huquqlari bobida ochiq tanqid qilmay keladi. Blok tashqi ishlar vazirlari 2010-yilda erishgan kelishuv - O'zbekiston hukumatidan islohotlar talab qilish va uni muayyan shartlar asosida javobgarlikka tutish qarori - chetga surilgan. Prezident Karimov Yevropa davlatlari poytaxtlariga taklif qilinadi, xususan Riga va Pragaga.

Chexiya safari fevral oyida inson huquqlari faollarining norozilik chiqishlari sabab bekor qilindi.

2014-yilda Osiyo Taraqqiyot banki va Jahon banki O'zbekistonda irrigatsiya sohasini yaxshilash uchun katta miqdorda kredit ajratdi. Fuqaro jamiyati faollari bu qarorni qoralab chiqdi, chunki berilayotgan mablag' majburiy mehnat muammosiga hissa qo'shishi mumkin. O'zbekiston hukumati fuqarolarni ekspluatatsiya qilish siyosatidan voz kechmas ekan, kredit to'g'ri maqsadlarga sarflanmaydi. Paxta terimini mustaqil tarzda kuzatish lozim va fuqaro jamiyatiga buning uchun sharoit yaratib berilishi kerak.